

# O'ZBEK FALSAFASINING SHAKLLANISHIGA BO'LGAN E'TIBOR XXI

## ASR O'ZBEK FALSAFASI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lif yo'nalishi 1-kurs talabasi  
Abdullayeva Jasmina Bozor qizi  
Hakimova Yulduz Shuhrat qizi  
Bobomurodova Robiya Bahrom qizi*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada XXI asr o'zbek faylasuflari va ularning ilmiy merosini tadqiq etishga alohida e'tibor berilib, xususan uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni ga e'tibor qaratilgan. Bulardan tashqari, o'zbek falsafasining shakllanishi, maqsadi va faoliyati, uning ahamiyati hamda rivojini yoritilgan. O'zbek falsafasining shakllanish jarayonini, uning yo'nalishlari tarixini tahlil qilgan holda, XXI asr o'zbek falsafasining ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek falsafasi, falsafiy dunyoqarash, falsafiy tafakkur, milliy istiqlol g'oyasi, falsafiy ildizlari, falsafaning shakllanishi.

### **Kirish.**

Mustaqillikning taraqqiyot yo'li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zero, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqe va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan quollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda o'zbek falsafasini ham qaysi davrlar rivojlanganligi, bugungi Yangi O'zbekistondagi faoliyati va takomillashi bizning bevosita muvvafaqiyatimizdir. Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o'zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan. Falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam - medisina yoki ta'lim, san'at yoki madaniyat sohasi vakili bo'ladimi, bundan qat'iy nazar - hayotning, o'z kasbining ma'no mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni tahlil qilish uchun har bir voqe va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur xulosalar chiqara olish kerak. Shu bois har bir soha vakili bo'lishi uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo'lish darkor" allomalar orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo'sha oladi. "Falsafa" fani barcha zamonlarda va mamlakatlarda hamma universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'rganish uchun

majburiy sanalgan fundamental fanlardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining teran ildizlari mavjud bo'lib, istiqlol mafkurasining shakllanishida uning tarixiy ildizlari bilan bирgalikda falsafiy ildizlari ham uning shakllanishiga kuchli ta'sir etgan. Mustaqillik davrida milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi bilan bir vaqtida uning falsafiy ildizlarini o'rganish va tadqiq etish ijtimoiy sohaning eng dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Mustaqilligimiz tufayli xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan - kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning falsafiy asosini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlarimiz, urfodat va an'analarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga osha oladi, chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo'lini sharaf bilan o'ta oladi. Shunday ekan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoiy komil insonlar etib tarbiyalash hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Omonulla Fayzullaev. -T.: 2006. 4-8 betlar. (Maqola mualliflari V.Qobulov va S. Shermuxamedov).[6]
2. Falsafa (o'quv qo'llanma). E.Yusupovning umumiy tahriri ostida. -T.: Sharq, 1999.
3. Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. -T.: O'qituvchi, 1997.
4. Falsafa asoslari (Q.Nazarov). -T.: O'zbekiston, 2005. 10.Omonulla Fayzullaev. - T.: 2006.
5. Hozirgi zamon falsafasi: holati va taraqqiyotining istiqbollari. Akademik Jondor Tulenov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
6. Xayrullaev M.M. Milliy ma'naviyatimizning ulkan jonkuyari. Akademik Ibrohim Mo'minov (Maqolalar va xotiralar). -T.: 1993.